



**OILALARDA INTERNETGA TOBELIKNING BUGUNGI KUNDAGI  
HOLATI**

**Kushakova Nargiza Islambayevna**

Nizomiy nomidagi O‘zMPU

Amaliy psixologiya kafedراسi dotsenti v.b., p.f.n b.PhD

Tel.: +998 91 976-53-29

e-mail:[kuwakovanargiza7777@gmail.com](mailto:kuwakovanargiza7777@gmail.com)

Zamonaviy dunyoda internet va raqamli texnologiyalar hayotning ajralmas qismiga aylandi. Ular ta’lim, aloqa va ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishda muhim rol o‘ynasa-da, ularning oilaviy hayotga ta’siri, ayniqsa, internetga tobelik muammosi jiddiy e’tibor talab qilmoqda. Oilalar ichidagi munosabatlar, ma’naviy-axloqiy muhit va an’anaviy qadriyatlarining saqlanishi bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar va virtual platformalarning haddan ziyod ko‘p ishlatilishi tufayli xavf ostida qolmoqda. Telefonlar, YouTube, Telegram, Instagram va Facebook kabi platformalar oila a’zolarining o‘zaro muloqotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatib, ko‘pincha yuzma-yuz munosabatlarni kamaytirib, hissiy aloqalarni zaiflashtirmoqda.

Internetga tobelikning dolzarbligi nafaqat oilaviy munosabatlarning sifatiga, balki yosh avlodning tarbiyasi va psixologik salomatligiga ham bevosita ta’sir qilishi bilan izohlanadi. O‘zbekiston kabi an’anaviy oilaviy qadriyatlar muhim o‘rin tutadigan jamiyatlarda ushbu muammoning oqibatlarini yanada chuqur sezilmoqda. Masalan, oila a’zolarining ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazadigan vaqti ko‘payishi natijasida ota-onalar va farzandlar o‘rtasidagi muloqot vaqtining qisqarishi, oilaviy mas’uliyatlarning e’tiborsiz qolishi kabi holatlar kuzatilmoqda. Shu bilan birga, iqtisodiy omillar, masalan, moddiy yetishmovchilik yoki mehnat migratsiyasi tufayli oila a’zolarining bir-biridan uzoqlashishi internetga tobelik muammosini yanada kuchaytiradi, chunki virtual olam ko‘pincha hissiy bo’shliqni to‘ldirish vositasi sifatida qaralmoqda.

Ushbu muammoning dolzarbligi global miqyosda ham e’tirof etilmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, internetga tobelik psixologik va ijtimoiy muammolar, jumladan, depressiya, tashvish va oilaviy nizolarni keltirib chiqaruvchi omil sifatida qaralmoqda. O‘zbekistonda oilani mustahkamlash va ma’naviy-axloqiy muhitni yaxshilash bo‘yicha olib borilayotgan fundamental va amaliy tadqiqotlar ushbu muammoning oldini olish va oilaviy qadriyatlarining saqlanishini ta’minlashga qaratilgan. Ushbu maqolada oilalarda internetga tobelikning bugungi kundagi holatini tahlil qilish, uning oilaviy munosabatlar va yosh avlod tarbiyasiga ta’sirini o‘rganish hamda bu muammoning oldini olish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish maqsad qilib qo‘yilgan. Tadqiqot natijalari nafaqat oilaviy hayot sifatini



**TURKEY**

oshirishga, balki jamiyatda an'anaviy qadriyatlarning targ'ib qilinishiga ham xizmat qiladi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 2017-yil 15-iyundagi "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqida jamiyatimiz hayotida, xalqimiz orasida uchrab turadigan, ayniqsa oila va nikoh sohasida duch kelinayotgan o'ta dolzarb, og'riqli va o'tkir muammolar to'g'risida gapirib o'tgan edilar.

Xususan, turmush qurgan yoshlar orasida hayotni yengil-yelpi tasavvur qilish, oila muqaddasligini tushunib yetmaslik holatlari uchrab turayotgani, yosh oilalar orasida arziyas sabablar bilan ajralishlar ko'payib borayotgani, begunoh bolalar yetim bo'lib, mehr va e'tiborga eng tashna paytda ota-ona tarbiyasidan chetda qolayotganligi haqida to'xtalib, shunday degan edilar:

"...Oilalarda nosog'lom munosabatlar, qaynona-kelin, er-xotin o'rtasidagi janjallar, xotin-qizlarimiz orasida o'z joniga qasd qilish holatlari borligi shaxsan meni qattiq iztirobga solmoqda."

Darhaqiqat, jamiyat va davlat uchun oila, nikoh, onalik, otalik va bolalik ijtimoiy jihatdan nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Zero, ushbu tushunchalar jamiyat va davlat shakllanishini ta'minlovchi muhim omillar hisoblanadi.

Shu sababli oila va nikoh masalalariga, uchrayotgan muammolarga ijtimoiy-siyosiy, ilmiy hamda oddiy turmush nuqtai nazaridan yondoshish, mazkur munosabatlarni qonun doirasida tartibga solish, mavjud qonun hujjatlarini real voqelikdan kelib chiqqan holda takomillashtirib borish, ularning mazmun-mohiyatini keng xalq ommasiga tushuntirish, oilaning har bir a'zosi va nikohga kiruvchi shaxslarning haq-huquqlarini qat'iy himoya qilish talab etiladi.

Oila qo'rg'onining poydevori, uning mustahkam qal'asi, er-xotinni mahkam bog'lovchi rishtasi — bu nikohdir. Oila rivojiga nafaqat unda yashovchi shaxslarning o'rni, balki unga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy omillar ham mavjud. Shulardan biri — internet hisoblanadi.

Virtual olam orqali insonlar boshqa bir shaxs bilan tanishib, do'stona munosabat o'rnatishi natijasida o'z oilasidan uzoqlashib, sovuqlik yuzaga kelishi, yoki hatto oila buzilishiga olib keluvchi munosabatlar shakllanishi mumkin. Ayniqsa, bu tanishuvlar ba'zan shaxsni mukkasidan ketkazib, ajrimlarga olib kelmoqda. Virtual olamdagi muloqot psixologiyasining o'ziga xos jihati shundaki, u ko'rinmagan shaxs bilan yuzma-yuz bo'lmagan holda, turli mavzularda bema'lol suhbat qurish imkonini beradi. Bu yashirin muloqot qiziqarli tuyulishi, shaxsning qiziqishini uyg'otishi mumkin. Bunday munosabatlar qisqa muddatli yoki uzoq davom etuvchi bo'lishi mumkin.

Afsuski, bu muammo jamiyatimizdagi har uchta oilaning birida kuzatilmoqda.

Ajrimlarning asosiy sababi sifatida internet, xususan, mobil telefonlar va ular orqali kiriladigan "Telegram", "Instagram" va "Facebook" kabi ijtimoiy tarmoqlarda yangi tanishuvlar orttirilishi ko'rsatilmoqda. Bu esa oiladagi munosabatlarning



**TURKEY**

buzilishi, er-xotin va farzandlar o'rtasida nizolar ko'payishiga olib kelmoqda. Buning asosiy sababi — shaxslar o'rtasida muloqot yetishmasligi yoki oiladagi shaxslararo kommunikativ muloqotning sustligidir.

Mazkur muammoning farzandlarda, ayniqsa o'smirlik davrida ham namoyon bo'layotganini ko'rishimiz mumkin. Farzandlarimizning qarovsiz qolishi, qiziqarli virtual o'yinlarga mukkasidan ketishi, ularning asosiy e'tiborini elektron o'yinlar egallashi ularni real hayotdan yiroqlashtirmoqda.

Biz ushbu muammoni internet bilan bog'lab, yechimini izlashga harakat qilmoqdamiz. Muammoning negizini aniqlash — ya'ni, shaxsning internetga qaramligini aniqlash va sog'lom turmush tarzini shakllantirish yo'llarini izlash zarur.

Oilada farzand tarbiyasi, oila a'zolarining o'zaro munosabati va turmushning chiroyli hamda mazmunli kechishi — barchamizning qo'limizda. Xususan, oilani mustahkamlash va rivojlantirish, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilash, jamiyatda eng ibratli oilaviy an'analarni saqlab qolish hamda targ'ibot qilish masalalari bo'yicha hududlarda qator fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar olib borilayotir. Misol uchun, zamonaviy muvaffaqiyatli oila mezonlari qanday bo'lishi kerak, degan mavzuda respublikamizning turli viloyatlarida 800 dan ortiq oilalarda ijtimoiy so'rovlar o'tkazilib, yakuniy natijalar bo'yicha zamonaviy oilaning modeli ishlab chiqildi. Tadqiqot o'tkazilgan oilalar vakillarining fikrlariga ko'ra, oiladagi sog'lom va barqaror, osoyishta psixologik muhit; yuksak ma'naviy-axloqiy tarbiya; yetarli darajadagi iqtisodiy va maishiy sharoitlar; oila a'zolarining ta'lim yo'nalishida oliy ma'lumotlilik darajasi; sihat-salomatlikka alohida e'tibor qaratish zamonaviy namunali oilaning asosiy mezonlari qatoriga kiradi. Shu o'rinda har qancha achchiq bo'lmasin, ochiq aytish kerak, tadqiqotlarimizning ko'rsatishicha, keyingi paytlarda xalqimizga xos bo'lmagan ayrim illatlar — oilaviy ajrashishlar, internet tobeligi, turli nizoli vaziyatlar, ishsizlik, oiladagi nosog'lom muhit, ma'naviy tushkunlik, ehtiyojmandlik, jinoyatga qo'l urish holatlari kabi omillar notinch, noqobil, kemptik oilalar va qator ijtimoiy-ma'naviy muammolarni paydo qilmoqda. Ayniqsa, ajrashishlar sonining kamaymayotgani kishida jiddiy tashvish uyg'otadi. Respublikamizning uchta viloyatida olib borgan tadqiqotlarimizdan ma'lum bo'ldiki, oilalar barbod bo'lishiga quyidagi omillar asosiy sabab bo'lmoqda: Psixologik omil — oiladagi og'ir psixologik muhit, o'zaro tushunishning yo'qligi, oiladagi doimiy nizolar, ota-onalarning yosh er-xotin hayotiga aralashishlari, yosh er-xotinlarni begonalashtirib qo'yish, bir-biriga befarqlik; Ijtimoiy omil — ichkilikbozlik, farzandsizlik, er yoki xotinning salomatligi yaxshi emasligi; internet tobeligi; Ma'naviy-axloqiy omil — er-xotindan birining uzoq vaqt davomidagi nikohdan tashqari aloqalari; Iqtisodiy omil — turar joy sharoitlarining qoniqarli emasligi, moddiy yetishmovchilik, ishsizlik, erning oilani ta'minlamasligi, mehnat migranti sifatida chet elga ketgan er-xotindan birining oilasi bilan aloqasi uzilishi, qarzlarni to'lay olmaslik.



E'tirof etish lozim, hozirgi kunga qadar 11 800 dan ortiq nizoli oilalarning ishi sudga yetib bormasdan, FHDYO organi va sudga ajrashish uchun ariza bergan 3100 dan ziyod oilalarni esa hamkor tashkilotlar bilan birgalikda yarashtirishga erishildi. Umuman, buzilib ketish arafasida turgan 14 645 ta oila saqlab qolindi. Olib borilgan tadqiqotlarimiz xulosalariga tayanib, ajralishlarning oldini olish va oilalarni mustahkamlashga qaratilgan qator takliflar ishlab chiqildi.

Avvalo, mahalla fuqarolar yig'inlari huzuridagi Yarashtirish komissiyalari hamda "Ota-onalar universiteti" tuzilmalari uchun malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish zarur, deb hisoblaymiz.

Shuningdek, oila qurayotgan fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirish lozim. Bunda mavjud qonunchilik asosida er-xotinning huquq va majburiyatlari, ayniqsa nikoh shartnomasini tuzish tartibi, shart-sharoitlari hamda huquqiy oqibatlari to'g'risida tushunchalar berilishi muhimdir.

Mazkur yo'nalishda keng qamrovli targ'ibot va tushuntirish ishlarini olib borish, shuningdek, tegishli uslubiy qo'llanmalar va metodik tavsiyalarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Umumta'lim maktablaridan tortib, oliy o'quv yurtlarining dasturlarigacha oila saboqlarini o'rgatuvchi dars mashg'ulotlarini kiritish foydadan xoli bo'lmaydi.